

**O‘N IKKI MAQOMNING ILMIY TARIXI VA ISLOM DINI BILAN
BOG‘LIQLIK JIHATLARI.**

Xalilova Layloxon Odiljon qizi,

Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti

E-mail: laylohalilova31@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola o‘n ikki maqom kelib chiqishi, koinot va din bilan bog‘liqligi, XII-XVII asrlarda yashab, ijod etgan musiqashunos olimlarning asarlari asosida o‘n ikki maqomni yoritishga va tahlil etishga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *O‘n ikki maqom, doira, halqa, sama’, tasavvuf, jins, jam’, zull-kull, Tariqat, kulliyot.*

**THE SCIENTIFIC HISTORY OF 12 MAQAM AND ITS RELATIONSHIP
WITH ISLAM**

Abstract: This article is devoted to the analysis and explanation of 12 maqam based on the works of musicologists who lived and created in the 12th-17th centuries based on the origin of the 12 maqam and the connection between the world and religion.

Key words: 12 maqam, circle, ring, sama, Sufism, gender, total, octave, sect, culliyat.

*Ey, Navoiy, sen dog‘i qilsang tama‘ sayri Hijoz,
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kabi.*

Alisher Navoiy

O‘zbek mumtoz musiqa san‘atining bebaho durdonalaridan bo‘lgan maqom qadim zamonlardan buyon Sharq musiqa madaniyatining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu o‘rinda maqom atamasiga qisqacha ta‘rif berib o‘tamiz.

Maqom – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “O‘rin, joy, istiqomatgoh” ma‘nolarini anglatadi.[1,63b] Ushbu atamani kelib chiqishi Ibrohim Alayhissalomga borib taqaladi. Ul zot o‘g‘li Ismoil Alayhissalom bilan qurgan Baytullohning yonida qoldirgan oyoq izlariga “Maqom” nomi berilgan va “Maqomi Ibrohim” deb aytilgan. Musiqa istilohida esa, barmoq bosib, tovush hosil qilinadigan parda, kuy va ashulalar boshlanadigan parda (hozirgi tonika ma‘nosida), ular harakat qiladigan pardalardan iborat tovushqatorlar (ladlar) ifodasi sifatida ta‘riflanib kelingan.

O‘n ikki maqom — XIII—XVII asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari kasbiy musiqa amaliyotida qullangan nazariy-amaliy tizim. Ushbu tizimni yuzaga kelishi uchun o‘sha davrda shaharsozlik gurkirab rivojlangan, iqtisodiy va ijtimoiy

madaniyat yuksalgan aniq fanlar ham ravnaq topib, san'at ham yangiliklar bilan boyitilgan. O'n ikki maqom ilk bor Safiuddin Al –Urmaviy va Qutbiddin Sheroziylarning musiqaga doir asarlarida tizim sifatida ishlab chiqilgan. U o'z ichiga 12 maqom, 6 ovoza, 24 sho'ba, 3 rang va 24 murakkabotni oladi. Bunda tizimning eng muhim qismi hisoblangan 12 maqom guruhining o'zagini 7 maqom parda uyushmalari tashkil etgan bo'lib, ular tarkibiga sifat jihatidan yaqin bo'lgan yana beshtasi qo'shilgan. Bularni yuzaga keltirish uchun esa, Safiuddin Al –Urmaviy (taxminan 1230-1294 y.) turli tovush uyushmalari – jinslarni nazariy jihatdan 2 guruhga (quyi va yuqori tabaqalarga) ajratgan edi. [11]

Shunga ko'ra quyi tabaqada 7 ta 4 pog'onali, yuqori tabaqada esa, 12 ta 5 pog'onali tovushqatorlar bo'lib, ularning birma-bir o'zaro birikuvi (7x12) natijasida 84 jam' hosil etilgan. Shulardan 12 tasi tarkibidagi zul-kull (oktava), zul-xams (sof kvinta) va zul-arba' (sof kvarta) kabi muloyim ohangdosh bo'd (interval) larning etarli miqdoriga qarab oily navli (mukammal) tovushqatorlar sifatida ajratib olingan va amaliy qo'llash uchun joiz ko'ringan. [11]

Hajmi oktava miqyosini qamragan mazkur 12 ta mukammal jam' serjihat (zohiriy-botiniy) ma'nolar bilan yo'g'rilgan umumiy va xususiy nomlar bilan yuritilgan. [11]

Safiuddin Al –Urmaviy 12 maqom tizimini nazariy mubohasa qilishda Ud cholg'usining keng qamrovli tovushlar tizimiga asoslagan. Zero chang-arfaning 7 maqomga mos tortilgan simlari bunday ishlanmalar imkonini bermagan.

Safiuddin Al –Urmaviy tomonidan XIII asrda ixtiro etilgan o'ziga xos nota yozuv tizimi (tabulatura) aynan udning 5 ta tori va pardalari in'ikosiga asoslangan edi.[3, 17,18 b]

Safiuddin Al –Urmaviyning ilmiy tasnifoti keying asrlar (XV – XVI) davomida Xo'ja Abdulqodir Marog'iyning "Maqasidul-alhan" (kuylarning o'rni), "Jamiul-Alhan" (kuylar to'plami), Abdurahmon Jomiyning "Risolai-musiqiy" (musiqa risolasi), Zaynulobiddin Husayniyning "Qonuni-ilmiy va amaliy musiqiy", Najmiddin Kavkabiyning "Risolai-Duvozdahmaqom", "Kulliyoti-Kavkabiyy" kabi asarlarida ijodiy davom ettirilib, pirovardida, o'n ikki maqom tizimi tarkibidan yana (12 maqomdan tashqari) 6 ovoza, 24 sho'ba, 3 rang va 24 murakkabot kabi muayyan darajali tovush uyushmalari ham o'rin olgan.[3, 25b]


O'n ikki maqom xususiy nomlari:

1. Ushshoq – oshiqlar. Ya'ni Olloh yo'liga muhabbat qo'yish.
2. Navo – shu yo'lda oh chekish.
3. Busalik – Olloh yo'liga kirish (Ahd otasiga ishora – Abu Salik)
4. Rost – to'g'ri (tariqat yo'li)
5. Husayniy – shu nomli shaxs nomi.

6. Hijoz – Arabistondagi joy nomi.
7. Roxaviy – Suvora ma’nosida, ya’ni, Olloh yo’lida davom etish.
8. Zangula – tuyalar bo’yniga osilgan qo’ng’iroq, nola.
9. Iroq – shu nom bilan ataladigan cho’l.
10. Isfaxon – Arabistondagi eng chekka qishloq nomi.
11. Zirafkand (Kuchak) – to’xtash, etib kelish, pastga sakrash (kichik)
12. Buzruk – katta, buyuk, Ollohga ishora. [7]

1. Maqomi Ushshoq – Ushshoq iborasi Arabcha “Oshiq” so’zining ko’pligi, ya’ni, “Oshiqlar” demakdir. Sharq olimlari Ushshoqni eng qadimgi, ya’ni birinchi maqom deb ataganlar. Ushshoq maqomining tovushqatori miksolidiy natural ladiga mos keladi. Bu lad XIII-XV asr musiqa risolalarida Ushshoq doirasi deb ham nomlangan. [1, 92 b]

Ushshoq doirasi:



Doirada A pardasining oktava (VIII tovush) balandligidagi takrorlanish ifodasi Йх esa A bilan bir xil tondek qaraladi. Shu doira chizig’i bo’yicha tovushqatorni bir necha bor aylantirish va uni cheksiz takrorlash mumkin. Ushbu ladga mos keladigan kuy va ashulalar Ushshoq maqomiga kiradi. [1, 93 b]

Rost maqomidagi Muxammasi Ushshoq, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Ufari Ushshoq, Savti Ushshoq nomi bilan mashxur bo’lgan sho’balarning lad tuzilishini yuqorida zikr etilgan O’n ikki maqom tizimidagi Ushshoqning lad asosi bilan taqqoslab ko’rilsa, ular aynan bir xil ekanini bilib olish qiyin emas. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ladga mos keladigan kuy va ashulalar Ushshoq maqomiga kiradi. [1, 93 b]

2. Maqomi Navo. “Navo” so‘zi – kuy, ohang, mungli kuy ma’nolarida keladi, ya’ni “navo chekish” demakdir. (Navoiy ham o‘z tahallusini shu so‘zdan olib, gul (maxbub) ishqida navo chekuvchi bulbul ma’nosida ishlatgan edi).

Navo ham qadimiy maqomlardan bo‘lib, uni “Nag‘man Dovudiy” deb ham ataganlar. Bu haqda XVI – XVIII asr manbalarida rivoyat va afsonalar keltiriladi.

Maqomi Navo jav‘larning to‘qson bir turi jumlasidan o‘n beshinchi (Husayniyning “Qonun”ida esa o‘n to‘rtinchi) doirani nashkil etadi, ya’ni, birinchi guruh jinslarining II nav‘I bilan ikkinchi guruhni tashkil etgan jinslarning II nav‘I qo‘shilishidan hosil bo‘ladi.

Kuy va ashula qaysi parda (tonika) dan boshlanishidan qat’iy nazar, Navo maqomining lad tuzilmasi Shoshmaqom variantidagi Navo va uning sho‘balariga ham mos keladi. Bunday kuy va ashula yo‘llari Navo maqomiga kiradi. [1, 94 b]

3. Maqomi Buslik. Musiqaga oid risolalarda ko‘rsatilishicha Buslik so‘zi ismi xos Abu Salikdan olingan. Bu maqom jam‘larning 29-doirasini tashkil etadi.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, o‘zbek-tojik xalqlari musiqasida Ushshoq, Navo va Buslik maqomlari tovushqatorlariga xech qanday o‘zgarishsiz mos keladigan kuy va ashulalar juda ko‘p uchraydi. [1, 94 b]

4. Maqomi Rost. Rost so‘zi o‘zbek, tojik [alqlarida rost, ya’ni mos keladigan ma’noda ishlatiladi. XVI-XVII asr musiqa risolalarida ko‘rsatilishicha, ko‘pchilik kuy va ashulalar shu lad tovushqatorining dastlabki pardasidan boshlanib, ularning ko‘pi shu ladga mos kelgani uchun ham Rost nomini olgan. Shu sababi Rost maqomini “Ummul-advor”, ya’ni, jam‘ doiralarining onasi deb ataganlar. Jam‘lar ro‘yxati bo‘yicha Rost 43-doirani tashkil etadi.[1, 95 b]

5. Maqomi Husayniy. Husayniy so‘zi ma’lum shaxsning (bastakorning) ismidir. Bu maqom jam‘lar ro‘yxatida 57-doirani tashkil etadi.

6. Maqomi Hijoziy. Hijoziy – Arabistonda Makka va Madina hamda ular atrofidagi past-tekistlikka ishora etilgan maqom nomidir. Lekin bu maqomni Arab musiqasiga tegishli deb qaramaslik kerak. Uning O‘rta Osiyo, Huroson va Ozarbayjonda qo‘llaniladigan boshqa nomi Segoh iborasi bilan mashxurdir. Hijoziy jam‘lar ro‘yxatida 58-doirani tashkil etadi.[1, 96 b]

7. Maqomi Rahoviy (Rohuviy). Kavkabiyy (XVI asr) ning risolasida ko‘rsatilishicha, bu Rum shaharlaridan birining nomi bo‘lgan. Musiqaga oid boshqa manbalarda Rahoviy O‘n ikki maqomlardan birining nomi ekanligi va hindlarda lalt (yoki lilt) nomi bilan mashxur ekani ko‘rsatiladi. Ba’zi mulohazalarga ko‘ra, u “rah” yoki “roh” – yo‘l ma’nolarida ham keladi. Chunki maqomlarning bizgacha yetib kelgan variantlari va xalq musiqa asarlarida Suvoriy nomi bilan mashxur otliqlar yurishini tasvir etadigan kuy va ashula yo‘llari ko‘plab uchraydi. “Suvoriy” – otliqlar yurishiga tegishli degan ma’noda kelsa, Rahoviy yo‘lga, yo‘l yurishga tegishli ma’nolarini beradi.

“Rahoviy” so‘zining bizning kungacha yetib kelgan shakli “Suvoriy” bo‘lsa ham extimol. Maqomi Rahoviy yuqorida aytilgan jam’larning 70-doirasini tashkil etadi. [1, 96 b]

8. Maqomi Zangula. Zangula (“qo‘ng‘iroq”, “qo‘ng‘iroqcha”) so‘zi tuya bo‘yniga ilinadigan yoki do‘mbiraga bog‘lanadigan qo‘ng‘iroq (zang) ma‘nosida keladi. Undan tashqari, raqs tushishda qo‘l-oyoqqa taqib jiringlatiladigan mayda qo‘ng‘iroqchalar ham shu ibora bilan ataladi.

Zangula nomi bilan atalgan maqom, ko‘proq raqs kuyi va ashulalaridan iborat bo‘lsa kerak. Bu maqom jam’larning 45-doirasini tashkil etadi.

9. Maqomi Iroq. “Iroq” iborasi hammaga ma‘lum mamlakatning nomi va unga nisbatan berilgan O‘n ikki maqom va Shoshmaqomdagi muayyan maqom nomidir. Iroq yuqorida zikr etilgan jam’lar jumlasidan 71-doirani tashkil etadi.

Iroq maqomining boshqa variant ham borki, u jam’lar ro‘yxatida 74-doirani tashkil etadi. [1, 97 b]

10. Maqomi Isfahon. Isfaxon Eronning mashxur shaharlaridan biri. Bu nom shaharga nisbatan berilgan bo‘lib, jam’lar ro‘yxatida 47-doiraga mos keladi.

11. Maqomi Zirafkand yoki Kuchak. Zirafkand – pastga sakrash, tushish va to‘shak, yotish payti ma‘nolarida keladi. Bunga sabab, o‘tmishda bu maqom turli maqsadlarda ijro etilganidir. XVII-XIX asrlarda yozilgan ba‘zi musiqa risolalarida ko‘rsatilishicha, har bir maqom kunning ma‘lum vaqtlaridagi inson kayfiyatini aks ettirgan. Zirafkand yotar vaqtdagi kayfiyatni aks ettirgani uchun shu nomni olgan bo‘lsa ehtimol.

Zirafkandning “Uzzol” ma‘nosi ham bor.

Uning ikkinchi nomi Kuchak (kichik) maqomidir.

Zirafkand jam’lar jumlasida 63-doirani tashkil etadi. [1, 98 b]

12. Maqomi Buzurg (Buzruk). Buzurg – katta, ulug‘ ma‘nolarida kelib, ulug‘ maqom demakdir. Xatto Shoshmaqomdagi shaklida ham u juda ko‘p kuy va ashulalarni o‘z ichiga olgan.

Buzruk jam’lar ro‘yxatida 75-doirani tashkil etadi.

12 maqom XIII-XV asr musiqa risolalarida shunday ta‘riflanadi. [1, 99 b]

24 ta sho‘balarning xususiy nomlari:

1. Dugoh. 2. Segoh. 3. Chorgoh. 4. Panjgoh. 5. Muxayyar. 6. Hisor. 7. Mubarqa’. 8. Nayrez. 9. Nishoburak. 10. Ro‘yi Iroq. 11. Mag‘lub. 12. Rakab. 13. Navro‘zi Bayotiy. 14. Zobul. 15. Avj. 16. Navro‘zi Xoro. 17. Mohur. 18. Ashiran. 19. Navro‘zi Sabo. 20. Humoyun. 21. Nuhuft. 22. Uzzol. 23. Navro‘zi Arab. 24. Ajam (Navro‘zi Ajam). [9, 1 b]

Maqomlarning sho‘balari haqida.

Sho‘ba deyilganda maqomlarning shoxobchalari tushuniladi. Sho‘balar masalasida ham XV – XVII asr musiqa risolalariga murojaat etishga to‘g‘ri keladi.

Chunki bu risolalarda yoritilgan sho‘‘balar masalasi bizning kungacha yetib kelgan musiqa asarlariga ham aloqadordir va Shoshmaqom tarkibidagi sho‘‘balar funksiyasini anglashda ham yordam beradi.

Sho‘‘balar maqomlar kabi ijro etiladigan kuy va ashulalarning lad asosidir. Lekin musiqa risolalari mualliflarining bu masalada yuritadigan tahminiy muloxazalari sho‘‘balar tizimini anglashda ko‘pincha chalkashliklar tug‘ilishi mumkin. Shuning uchun V.M.Belyaev Abdurahmon Jomiyning risolasiga yozgan sharxida sho‘‘balarning kompozitsiya nuqtai-nazaridan ahamiyati haligacha aniqlanmagani va kelgusida aniqlanishi hamda ilmiy asosda o‘rganilishi lozimligini uqtirib o‘tadi. [1, 103 b]

1. **Dugoh** iborasi tovush hosil qilinadigan ikki joy, ya’ni parda demakdir. Oralig‘i butun ton darajasida bo‘lgan ikki turli tovush Dugoh sho‘‘basidir. O‘rta Osiyo va Xurosonda ikki pardada ijro etiladigan kuy va ashulalar uchramaydi, balki bunday tovushlar birikmasi kuylarning boshlanish pardalari bo‘lib xizmat etishi mumkin.

2. **Segoh**. Uch joydan, ya’ni uch pardadan chiqarib olinadigan tovushqatoridir. Shoshmaqom tarkibida Segoh nomi bilan mashxur maxsus maqom bo‘lib, u Hijoz maqomi va Segoh sho‘‘basiga asoslangan.

3. **Chorgoh** to‘rt pardadan hosil qilinadigan tovushqatoridir. Chorgoh sho‘‘basi yuqorida zikr etilgan birinchi guruh jinslarning birinchi nav‘iga mos keladi.

4. **Panjgoh** (besh pog‘ona – parda) Panjgoh manbalarda ko‘rsatilishicha ikki xil bo‘ladi: [1, 105 b]

a) Panjgohi asl (asosiy Panjgoh). U besh pog‘onali kvinta diapazonidagi tovushqator bo‘lib, ikkinchi guruh jinslarning to‘rtinchi nab‘ini tashkil etadi.

b) Panjgohi zoid (orttirilgan Panjgoh). Yuqoridagi tovushqatorida $\check{Y}x$ bilan $\check{Y}x$ orasiga bir pog‘ona – Iz qo‘shib orttiriladi. Lekin tovushqator diapazoni o‘zgarmaydi.

5. **Ashiran** (o‘ntalik, ya’ni, o‘n pog‘onali tovushqator). Ashiran sho‘‘basiga xos boshqa turi ham borki, u olti pog‘onalidir.

Zaynulobiddin Husayniyning Ashiran tovushqatori Husayniy maqomining bir qismi (III - IV - V - VI - VII 1 - VII 1 pog‘onalari) ga mos keladi.

6. **Navro‘zi Arab** (Arablarning Navro‘z bayramiga nisbat beriladi). Bu sho‘‘ba XV asr risolalarida olti pog‘onali bo‘lib, Ud pardalaridan chiqarib olinadi.

XIV asrning mashxur olimi Xo‘ja Abdulqodir o‘zining “Jami’ul alhan (kuylar to‘plami) asarida Navro‘zi Arab sho‘‘basini to‘rt pog‘onali tovushqator deb ko‘rsatadi. [1, 106 b]

7. **Mohur** (tushkun, g‘amgin) bu sho‘‘baning asl mohiyati no‘malum. Mohurning oxirgi ikki pog‘onasidan tashqari bo‘lgan tovushqatori Ushshoq maqomiga mos keladi.

8. **Navro‘zi Xoro**. Lug‘aviy ma’nosi no‘malum. Xoro – tosh va ipakchilik mato ma’nolarida keladi. Bu sho‘‘ba Navro‘zi Ajam nomi bilan mashxur bo‘lgan. Shuni

alohida aytish lozimki, Shoshmaqomning Segoh maqomida Navro‘zi Xoro va Navro‘zi Ajam nomlari bilan mashxur Nasr deyilgan sho‘‘balar mavjud.

9. **Navro‘zi Bayotiy.** Bayot – O‘rta Osiyolik turk qabilalarining biri. Shu qabilaning Navro‘z bayramiga nisbatan berilgan sho‘‘ba nomi deb o‘ylash mumkin. Shoshmaqomdagi Navo maqomida ham Bayot nomi bilan mashxur bo‘lgan sho‘‘balar uchraydi. Navro‘zi Bayotiy besh pog‘onali tovushqatoridir.

10. **Hisor.** (Qal‘a yoki tog‘ bilan o‘ralgan vodiy) Qadimgi Tojikiston hududiga o‘rnashgan ma‘lum bir shahar nomi. Bu unga nisbat berilgan maqom sho‘‘basidir. [1, 107 b]

11. **Nuhuft** (mahfiy, yashirin). Manbalarda Nuhuft Buzruk maqomining sho‘‘basi deb ko‘rsatiladi. Nuhuft sho‘‘basi sakkiz pog‘onali tovushqator bo‘lib, jam‘lar jumlasidan 69 doirani tashkil etadi.

12. **Uzzol.** Bu ibora pastga tushish, sakrash ma‘nolarida keladi. Kuy o‘z harakatida yuqoridan pastga 4-5 pog‘ona sakrab tushishi mumkin.

13. **Avj** (cho‘qqi ma‘nosida). Jam‘lar jumlasida 78 doirani tashkil etadi.

14. **Nayriz** (lug‘aviy ma‘nosi aniq emas). Isfahon maqomining sho‘‘basi bo‘lib, besh pog‘onali tovushqatoridir. Manbalarda Nayrizning turli variantlari keltiriladi. Tojik xalqida Nayriz nomi bilan mashxur xalq kuyi xozirda ham ijro etiladi. [1, 108 b]

15. **Mubarqa’** (pardaga o‘ralgan). Ikki pog‘onali tovushqator bo‘lib, ular Ud pardalarida X + Ў (4 9 8 - 6 7 8) dir. Lekin bu ikki pog‘ona (X + Ў) old va oxiridan boshqa tovushlar bilan birga o‘ralgani uchun Mubarqa’ nomi berilgan. Shuning uchun musiqa risolalari mualliflari Mubarqa’ning sakkiz pog‘onali tovushqatorini ham keltiradilar. Eski risolalarda Mubarqa’ning ikki pog‘onasidan tashqari tovushlari, go‘yo “Bezak” uchun ishlatiladigan “qo‘shimcha” pardalar hisoblanadi.

16. **Rakb.** Arabcha otliq (minish) ma‘nosida keladi. Bizgacha yetib kelgan maqom va xalq musiqasida shu mazmunga Suvoriy nomi bilan mashxur bo‘lgan kuy va ashula yo‘llari mos keladi.

17. **Sabo.** Ko‘pchilik musiqa risolalarida Navro‘zi Sabo nomi bilan ham mashxur bo‘lib, bahor nasimi, mayin shabada ma‘nolarida ishlatiladi. Saboning o‘ynash, yoshlik, sho‘xlik, sevgi ma‘nolari ham bor. Demak, Sabo bahor nasimini tasvirleydi. U Rahoviy maqomining sho‘‘basi bo‘lib, besh pog‘onadan iborat.

18. **Humoyup** (shohona, buyuk). Bu sho‘‘ba yeti pog‘onali bo‘lib, Ud pardalaridan hosil qilinadi. [1, 109 b]

19. **Zovuliy** (Zobuliy). Eronning Seiston viloyatidagi shahar. Bu esa unga nisbatan berilgan sho‘‘ba nomidir. Zovuliy uch pog‘onali tovushqator bo‘lgani uchun Segoh (uch pardali) nomi bilan ham mashxur bo‘lgan.

20. **Isfahonak va Ro‘yi Iroq.** Isfahonak – Eronning mashxur Isfahon shahriga nisbat berilgan sho‘‘ba nomidir, “ak” qo‘shimchasi esa kichraytirish uchun ishlatiladi. Ro‘yi

Iroqda: ro‘yi - ko‘rinishi, Iroq maqom nomi bo‘lib, Iroq maqomi ko‘rinishi demakdir. Bular asosan ikki turli tovushqatorga ega bo‘lgan bitta sho‘‘badir hamda Iroq maqomi tovushqatorning bir qismidir. Ro‘yi Iroq – Isfahonakning bir qismi bo‘lib, Zaynulobidin Husayniyning aytishicha, bular Hijoz maqomiga o‘xshaydi.

21. **Bastai Nigor** (Nigor ismli kishining ishlagan bastasi) to‘rt pog‘onali tovushqatoridir. [1, 110 b]

22. **Pihovand**. Iroq mamlakatida mashxur shahar va unga nisbat berilgan sho‘‘baning nomi. Manbalarda ko‘rsatilishicha Nihovand yarim kechada ijro etilar ekan. Nihovand sho‘‘basi jam‘lar jumlasida 40 doirani tashkil etadi.

23. **Javty** (egizaklarga tegishli). Eski musulmon taqvimining uchinchi oyi va unga nisbat berilgan sho‘‘ba nomi bo‘lib, olti pog‘onali tovushqatoridir.

24. **Muxayyar** (tanlab olingan). Sakkiz pog‘onali tovushqator bo‘lib, jam‘larning 56 doirasini tashkil etadi.

Xullas, o‘n ikki maqom tizimiga kirgan yigirma to‘rt sho‘‘bani XIII-XV asr musiqa risolalari asosida shunday tasavvur etish mumkin. Musiqa risolalari mualliflari o‘z imkoniyatlari doiraida maqom, ovoz va sho‘‘balarning faqatgina tovushqatorlarnigina tahmini tarzda Ud sozining pardalari asosida tushuntira olganlar. [1, 111 b]

Sho‘‘balarni nomlariga qaraganda bu guruhda turli Sharq xalqlari (Turk, Eron, Arab, Tojik va b.) ning qadimdan an‘anaviy ijro etib kelingan aytim kuy ohanglari tovushqator tuzilmalari tarzida tasnif etilganga o‘xshaydi. Ularning nomlarida shunga ishoralar bor. Masalan: “Navro‘zi Arab”, “Navro‘zi Bayotiy”, “Navro‘zi Ajam”. [9, 2 b]

6 ovozalarning nomlanishi:

1. Navro‘z – yilning birinchi kuniga berilgan nisbatdir.[1, 100 b]

2. Salmak – uning lug‘aviy ma‘nosi manbalarda berilmaydi. Jomiyning risolasida faqat ikkinchi variant keltirilib, tovushqatori aksincha joylashtirilgan. Bu ovozning olti va o‘n bir pog‘onali variantlari mavjud.

3. Gardoniya - “Aylanuvchi, aylanma yo‘lli” ma‘nosida keladi. Gardoniya ladiga mos kuylar juda murakkab yo‘llar bo‘lsa kerak. Uni Gardun iborasi bilan ham atalib, Shoshmaqom cholg‘u yo‘llarida ham uchraydi (Garduni Segoh, Garduni Navo kabi). Bu ovoz jam‘lar jumlasidan 52-doiradir.

4. Gavasht – uning lug‘aviy ma‘nosi noma‘lum bo‘lib, jam‘lar jumlasidan 76-doirani tashkil etadi.

5. Moya – Asl, sof, oily nav‘ ma‘nolarida ishlatiladi.

6. Shaxnoz - (kelinchak ma‘nosini bildiradi). Shaxnoz nikoh to‘ylarida ijro etilgan yoki ruylarning kelinchagi, go‘zali ma‘nolarida ishlatilgan bo‘lishi mumkin. [1, 102 b]

Olti ovozalarning nomlanishi “Avesto” bilan ham bog‘liq. Undagi Gardoniya Gavasht, Moya kabi qismlari “Avesto”da ijro etiladigan diniy va marosim qo‘shiqlariga aloqador deb tahmin qilinadi. Bundan tashqari, sho‘‘balardagi Dugoh,

Segoh, Chorgoh, Panjgoh sho‘balaridagi Gohlarni “Avesto”dagi Gotlar bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tishadi. [9, 2 b]

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Safiuddin Urmaviy jinslarni nazariy jihatdan 2 guruhga bo‘lib (quyi va yuqori), quyi tabaqada 7 ta 4 pog‘onali, yuqori tabaqada esa 12 ta besh pog‘onali tovushqatorlarni o‘zaro biriktirib (7x12) 84 jam’ hosil qilgan. [10]

XV asr ba’zi musiqiy risolalarida jam’lar soni 91 ta deb ko‘rsatiladi.[1, 90 b]

O‘n ikki maqomning din bilan bog‘liqlik jihatlari

Darveshali Changiy “Risoli musiqiy” asarida Shoshmaqomning asosini tashkil etgan “O‘n ikki maqom”ning kelib chiqishi tarixini ayrim rivoyatlar bilan izohlaydi. “Qissas – ul anbiy Rabg‘uziy” asarida esa maqomlar o‘tgan Payg‘ambarlarga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Bundan ko‘rinadiki, Changiy maqomlarni ilohiylashtirish orqali ularni “sha’riy xodisa” qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

Muallifi no‘malum bo‘lgan yana bir “Risoli musiqiy” asarida ta’kidlanishicha, yunon olimi Aflotun (eramizdan avvalgi VI-V asrlar) maqomlarni yilning 12 burjiga moslab yaratgan:

1. Rost maqomi – Hamal
2. Isfaxon maqomi – Savr
3. Iroq maqomi - Javzo
4. Zirafqand maqomi – Saraton
5. Buzruk maqomi – Asad
6. Xijoz maqomi – Sumbula
7. Busalik maqomi – Mezon
8. Ushshoq maqomi – Aqrab
9. Navo maqomi – Qavs
10. Husayniy maqomi – Jadiy
11. Zangula maqomi – Dalv
12. Rahoviy maqomi – Xut

Yana bir muallifi no‘malum “Risolatun fi ilm ul musiqiy” risolasida 12 ta maqomni Yusuf payg‘ambar ixtiro etgan deyiladi. Risolada keltirilishicha, bir kuni Yusuf Payg‘ambar o‘z odamlari bilan Nil daryosi bo‘yida kelayotganida daryodagi katta bir toshga ko‘zi tushadi va o‘z odamlariga uni chiqarib olishga farmon beradi. Odamlar toshni chiqarib olib katta bir sahroga yetib boradilar. Sahroda bu yo‘lovchilar ochlik va tashnalik bois holdan toyib, halok bo‘la boshlaydilar. Shunda Yusuf payg‘ambar Ollohga iltijo qilib, undan najot so‘raydi. Bunga javoban osmondan “Xassangni toshga ur, hoy Yusuf!” degan sado keladi. Yusuf payg‘ambar shunday qilgan ham ekan, tosh ustida 12 ta teshik paydo bo‘lib, ulardan suv otilib chiqa boshlabdi. Osmondan yana: “Hoy Yusuf, bu tovush va ohanglarni yodingda saqla!” degan nido kelibti. Demak,

ushbu rivoyatdan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, maqom san'atining tarixi juda ko'xna va o'z o'q ildizlari bilan insoniyat paydo bo'lishining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Maqomlar o'sha qadim zamonlardan buyon kishilarni ruhan tetiklashtiruvchi, ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida tinmay xizmat qilib kelmoqda. [1, 140 b]

Noiniy, Darvishali Changiy kabi mualliflar ko'rsatishicha, 12 maqom guruhi payg'ambarlar (Odam Ato, Nuh, Ya'qub, Ayyub, Dovud, Sulaymon, Muso, Muhammad (as))dan qolgan ma'naviy meros asosida aniqlab olingan hisoblanadi. Ushbu 12 maqom Oshiqning buyuk ishq, tariqat yo'lida (7 ta bosqich) mashaqqatli safarini va ma'naviy yuksalib borishini botinan ko'rsatib o'tgan. Zohiran esa bizga bir oshiqning Ulug' Xaj safarini ado etishi bo'lib ko'rinadi. [6, 12 b]

O'n ikki maqomning asosiy maqsadi – kichik (inson) va katta olamning o'zaro birligi, uyg'unligiga erishishdir. Shu o'rinda so'fiy Mansur ibn Hallojning "Men Analhaqman", ya'ni men Alloh bilan birman degan so'zlari ham maqsadning namunasi edi.

Zi rohi «Rost» agar ohang mekuni ba «Hijoz»,
Zi «Isfahon» guzare jonibi «Iroq» andoz.
Ba noqa «Zangula» dar pardai «Rohaviy» band,
Ba «Busalik» «Husayniy» – sifat baror ovoz.
Mashav «Buzurg» zi rohi niyoz «Kuchak» bosh,
Dar on maqom ba «Ushshoq»-u «Navo» pardoz.

Mazmuni:

Agar «Hijoz» tomon (ya'ni haj safariga)
to'g'ri yo'l («Rost»)dan bormoq istasang,
«Iroq» tomon yurgilu, «Isfahon»dan ham o'tgil.
Tuyaga qo'ng'iroq («Zangula») osginu,
uni yo'l («Rohaviy») manzillariga band et.
«Busalik»ni «Husayniy» darajasi qadar yuksaltir.
Kamtarlik ila qalbingni oshiqlar («Ushshoq») kabi
ishq kuyi («Navo») ila ziynatla, va,
Kichik olamni («Kuchak») katta olam («Buzurg») birla uyg'un et.[3, 23 b]

Najmiddin Kavkabiyning «Kulliyot» asari

Shuni aytish kerakki, o'rta asrlarda mazkur 12 ja'm nomlari nafaqat maxsus ilmiy risolalarda, balki badiiy adabiyotda ham keng qo'llanilgan. Bunda, ayniqsa, «Hijoz» va «Iroq» nomlari serma'no tushunilgan. Ma'lumki o'tmishda muqaddas Hijoz manziliga yetishmoq yo'lida Iroq cho'llaridan o'tilgan. Shularni nazarda tutgan holda, «Hijoz» va «Iroq» nomlari ulug' haj safariga tashbeh etilgan. Bunga quyidagi she'riy misralar ham misol bo'lishi mumkin:

Gar Sifohonda Navotopmasang, ey yori Buzurg,
Qilg'asan, azmi Iroq, aylab ohangi Hijoz.

(Hofiz Xorazmiy)

Lutfiy, Hiriya qolmadi she'ringga Mushtariy,
Azmi Hijozqilki, maqoming Iroqemish.

(Mavlono Lutfiy)

Ey Navoiy, sen dog'i qilsang tama' sayri Hijoz,
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kebi. [3, 24 b]

(Alisher Navoiy)

“Maqom” deganda, ma'lum harakat jarayoni ham nazarda tutilib, bu jarayon mazmunini solik (yo'lovchi, murid) ning suluk (yo'l) bosqichlari bo'ylab safari va shu asnoda o'z maqsadi sari ma'naviy yuksalib borishi tashkil etadi. [3, 32 b]

Professor Abdurauf Fitratning “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927 yil) risolasida qayd etilgan quyidagi satrlar ham : “Temurning buyrug'i bilan har tomondan keltirilgan ixtisoschi olimlarning g'ayratlari bilan bu san'at (12 maqom) birdan jonlandi, oyoqqa turdi. Islom Sharqining har tomonidan keltirilgan cholg'uchilar bizning bu kungi klassik musiqamiz yuksalishiga, ko'tarilishiga xizmat qildilar. O'z zamonida yerlilardan ulug' musiqiyshunoslar yetishdilar” shunga ishora etadi. [3, 32 b va 5, 39-40 b]

Barchamizga ma'lumki, Temuriylar davri o'z davrida qudratli mamlakat bo'lgan. Ushbu davrda ko'plab daholar, allomalar, davlat rahbarlari, shoir va musiqashunoslar, olimlar yetishib chiqqan va zamonasining ilmi, madaniyati, san'ati, rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shganlar. Ushbu davr jahon tarixiga II Renesans nomi bilan muhrlanib qoldi.

Bugungi III Renesans davrida ham ajdodlarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan maqom san'atini yanada rivojlantirish maqsadida, yurtboshimiz tomonidan qator Qaror va Farmonlar qabul qilinmoqda, ko'plab xalqaro va respublika miqyosidagi maqom festivallari, ko'rik-tanlovlar tashkil etilib, yoshlarni maqom san'atiga bo'lgan qiziqishlari rivojlantirilmoqda va yangi iste'dodlar kashf etilmoqda.

Bunga yaqqol misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3391-sonli qarorini [11], Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 02 sentabrdagi “Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi 536-son qarorini keltirishimiz mumkin. [12]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Rajabov I. Maqomlar. T.: San'at nashriyoti, 2006.
2. Ibrohimov I. O'n ikki maqom. T.: 6- maqola, 2020
3. Ibrohimov I. Maqom asoslari. T.: TURON-IQBOL nashriyoti, 2018

4. Ibrohimov I. Maqomlar tarixidan.T.:O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.2018.2-noyabr, №45
5. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi uning tarixi.T.: Fan nashriyoti,1993
6. Ibrohimov I. Maqom va makon.T.: Movarounnahr nashriyoti,1996
7. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.T.:1963
8. Ibrohimov I. 8-maqola.T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.09.11.2020.№35
9. Ibrohimov I. 6-maqola.T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.2020.22-may.№17
10. Rajabov I. Marog'iy.Sovet O'zbekistoni jurnali.1982.№5
11. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ -3391-sonli qaror.Toshkent.2017.17-noyabr
12. Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institute faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 536-sonli qarori.Toshkent.2020.2-sentabr